



O‘ZBEK TILIDA SHAKLDOSHLIK VA POLISEMIYA

Toshpo‘latova Mahliyo Safar qizi

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Email: toshpolatovamahliyo22@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek tili murakkab va boy leksik qatlamga ega bo‘lib, unda ko‘p ma‘nolilik (polisemiya) va shakldoshlik (omonimiya) hodisalari keng tarqalgan. Ushbu maqolada shakldoshlik va polisemiya tushunchalari, ularning farqlari hamda o‘zbek tilidagi misollari tahlil tomonlari haqidagi ayrim qarashlar va fikrlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Leksikologiya, so‘z, omonim, ko‘p ma‘nolilik, polisemiya, leksik sath, yasama so‘z

FORMALITY AND POLYSEMY IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Tashpolatova Mahliyo Safar kizi

2nd year student of the Faculty of Philology

Email: tashpolatovamahliyo22@gmail.com

Annotation. This article discusses the complex and rich lexical layer of the Uzbek language, in which the phenomena of polysemy and homonymy are widespread. This article analyzes some views and opinions on the concepts of homonymy and polysemy, their differences, and examples in the Uzbek language.

Keywords: Lexicology, word, homonym, polysemy, polysemy, lexical level, made-up word.

ОБРАЗОВАНИЕ И МНОГОСЕМИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Ташполатова Махлиё Сафар кизи

Студентка 2 курса филологического факультета

Электронная почта: toshpolatovamahliyo22@gmail.com

***Аннотация.** В данной статье рассматривается сложный и богатый лексический пласт узбекского языка, в котором широко распространены явления полисемии и омонимии. В статье анализируются некоторые взгляды и мнения относительно понятий морфологического сходства и полисемии, их различия, а также аналитические аспекты их примеров в узбекском языке.*

***Ключевые слова:** Лексикология, слово, омоним, полисемия, многозначность, лексический уровень, вымышленное слово*

Leksikologiya – tilshunoslikda lug‘at tarkibi (leksikasi)ni o‘rganadigan bo‘limidir. Ma‘lumki, Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi leksika deyiladi. Bu so‘zlar shu tilning lug‘at boyligini tashkil etadi.. Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiyada so‘zlarning ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya‘ni monosemiya, antonimiya, polisemiya, sinonimiya so‘z ma‘nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari o‘rganiladi. Shular ichidan shakldoshlik bilan polisemiya xususida so‘z olib boramiz. So‘zlar bir yoki birdan ortiq ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Bir ma‘nolilik hodisasi monosemiya, ko‘p ma‘nolilik hodisasi polisemiya deb ataladi. Til hodisasi sifatida monosemiyaning emas, balki polisemiyaning o‘rganilishi ko‘proq nazariy va amaliy ahamiyati tilshunoslarni ko‘proq qiziqtiradi, chunki umumiste‘moldagi so‘zlarning asosiy qismi ko‘p ma‘nolidir. Hozirgi leksik ma‘nolar o‘z navbatida bosh ma‘no va hosila ma‘no

kabi tiplarga bo‘linadi, ular kontekst talabiga ko‘ra to‘g‘ri ma‘no va ko‘chma ma‘no, nominativ (nomlovchi) ma‘no va majoziy ma‘no, erkin ma‘no va bog‘li ma‘no (yoki bog‘langan ma‘no) nomlari bilan ham ataladi. Tildagi leksik polisemiya ana shu bosh va hosila ma‘nolar tizimiga asoslanadi. Bunga misol tariqasida **“barg”** so‘zining quyidagi misollardagi ma‘nolarini ko‘rsatish mumkin. *Daraxtlar **barg** to‘ka boshladi. Olmaning **bargidan** gerbariy tayyorlandi. Sarg‘aygan **barglarga** tikilsam, o‘tmish voqealari esga tushadi. Oddiy oqqaldirmoq o‘simligi **bargida** achchiq glikozidlar, saponinlar, karotinoidlar, inulin va dekstrin aniqlangan.* Bu o‘rinda **“barg”** so‘zining to‘rt xil ma‘nosiga misol keltirildi. **“Barg”** so‘zining keltirilgan misollardagi ma‘nolariga e‘tibor berilsa, ularda o‘zaro bog‘lanish (aloqa) borligi seziladi. Bu esa shu ma‘nolarining biri boshqasidan kelib chiqqani ko‘rsatadi.

Asosan tilda ko‘p ma‘nolilik (polisemiya) ikki asosiy yo‘l bilan paydo bo‘ladi:

- 1) so‘zning yangi ma‘no kasb etish natijasida;
- 2) ko‘p ma‘noli so‘zdan yoki ko‘p ma‘noli affiks vositasida so‘z yasash natijasida.

Yasama so‘zning ko‘p ma‘noli bo‘lishida yasovchi affiksning yoki so‘z yasashida asos bo‘lgan so‘zning ko‘p ma‘noliligi ham rol o‘ynaydi.[1-106] Masalan, *Butun Oltinsoyga mazax bo‘lganingni bilasanmi? Or-nomusimizni loyga **belading**, dog‘i o‘lguncha ketmaydigan bo‘ldi.* (Sh. Rashidov “Bo‘rondan kuchli”) -Voy, ovsar, - dedi entikib. - Men seni zarga **belab qo‘yaman**, bildingmi? (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”) [8 - 232 - b]

Yasama soʻzning birdan ortiq maʼnoga egaligi faqat yasalishga asos boʻlgan soʻz yoki affiksning koʻp maʼnoliligi bilan izohlanavermaydi. [106] Misol uchun: Yaxshidir **achchiq** haqiqat, Lek shirin yolgʻon yomon. (E.Vohidov) Hayotning achchiq zarbalari inson ruhiyatiga taʼsir qiladi.

Shakldoshlik (Omonimiya) Shakldosh soʻzlar – yozilishi va talaffuzi bir xil, lekin maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlardir. Ular bir-biri bilan bogʻliq boʻlmagan mustaqil lugʻaviy birliklar hisoblanadi.

Shakldosh soʻzlarga misollar:

- **Tosh** – 1) Qattiq jins (Misol: Togʻlarda yirik toshlar bor). 2) Oʻlchov birligi (Misol: U ikki tosh goʻsht oldi).
- **Yoz** – 1) Yil fasli (Misol: Yoz faslida havo issiq boʻladi). 2) Yozish feʼli (Misol: U xat yozdi).

Shakldosh soʻzlarning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular tasodifan bir xil shaklga ega boʻlgan mustaqil leksik birliklar boʻlib, ularning oʻzaro semantik aloqasi yoʻq.

Polisemiya (Koʻp maʼnolilik) – bitta soʻzning bir-biriga yaqin yoki bogʻliq holdagi bir nechta maʼnoga ega boʻlishidir.

Polisemiya misollari:

- **Ko‘z** – 1) Inson organi (Misol: Ko‘zlarim toliqdi). 2) Buloq chiqadigan joy (Misol: Buloqning ko‘zi ochildi). 3) Harflar orasidagi teshik (Misol: I harfining ko‘zi yo‘q).
- **Oyog** – 1) Inson yoki hayvon a‘zosi (Misol: U oyog‘ini sindirib oldi). 2) Stol, stulning tag qismi (Misol: Stolning oyog‘i sinibdi). 3) Tog‘ yoki balandlikning pastki qismi (Misol: Tog‘ etagi oyog‘ida joylashgan).

Polisemantik so‘zlar tarixan paydo bo‘lib, yangi ma’nolar asosiy ma’no bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Shakldosh va polisemantik so‘zlarning farqlari

Shakldoshlik (Omonimiya)	Polisemiya
So‘zlar tasodifan bir xil shaklga ega	So‘zlarning ma’nolari o‘zaro bog‘liq
Har bir so‘z mustaqil leksik birlik	So‘zning turli ma’nolari tarixiy rivojlangan
Misol: Yo‘l (1. Harakat yo‘li; 2. Ish usuli)	Misol: Ko‘z (1. Inson organi; 2. Buloqning boshlanish joyi)

Demak, shakldosh (omonim) va ko‘p ma’nolilik (polisemiya) bu ikki holatni bir-biridan quydagi farqlari mavjud ekan:



a) shakldosh soʻzlar - shakli (koʻrinishi) , aytilishi va yozilishi bir xil boʻlgan, lekin maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlardir. Hayotda ularni biz egizaklar yoki tashqi koʻrinishi oʻxshash boʻlgan har xil kishilar deb qarash ancha tushunarli boʻladi. Masalan: *yuz - chehra , yuz-son; chang - musiqa asbob, chang-toʻzon, gʻubor; qil - sochning qili, qil- harakat qilmoq, bajarmoq; oʻt - harakat oʻtmoq, oʻt - olov, oʻt - maysa* va h.k

b) Koʻp maʼnolilik (Polisemiya) - aynan bir soʻzning soʻz birikmasi va gaplarda oʻz maʼnosidan tashqaridagi maʼnolarda kelishi. Masalan, *Odamning koʻzi* (oʻz maʼnosida); *Ishning koʻzi* (polisemiya) *Xonadon oʻt ichida qoldi*. Bunda “oʻt” soʻzi oʻz maʼnosida “olov” maʼnosida kelgan.

Tilshunos olim H.Jamolxonov bu hodisalarga quyidagicha taʼrif beradi. Omonimiya va polisemiya hodisalari oʻrtasida maʼlum oʻxshashlik va tafovutlar bor. Oʻxshashligi: omonimiyada ham, polisemiya ham ifoda plani (shakli) bir xil boʻladi, har ikki holatda birdan ortiq maʼno ifodalanadi[7-106]. Masalan, *Yigitning yuragida oʻti bor edi*. Bu gapda esa “oʻt” soʻzi polisemiya hodisasi taʼsirida “shijoat, ishtiyoq” maʼnolarida kelyapti. Polisemantik soʻz qancha mʼnoga ega boʻlmasin, bu maʼnolar oʻzaro bogʻlangan boʻladi. Xuddi shu xususiyat koʻp maʼnoli soʻzni omonimlardan farqlaydi.

Oʻzbek tilida shakldoshlik va polisemiya hodisalari leksik tizimni boyitadi. Shakldosh soʻzlar mustaqil leksik birliklar boʻlsa, polisemantik soʻzlarning maʼnolari bir-biriga bogʻliq boʻladi. Bu hodisalar tilshunoslikda muhim oʻrinni egallaydi va tilning rivojlanishiga taʼsir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Shoabdurahmonov , M. Asqarova , A. Xojiyev , I. Rasulov , X. Doniyorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili " 1-qism - T: "O'qituvchi" 1980 [105-107b].
2. Sayfullayeva R. R. , Mengliyev B. R. , Boqiyeva G. H. , Qurbonova M. M., Yunusova Z. Q. , Abuzalova M. Q. "Hozirgi o'zbek adabiy tili " - T: "Fan va texnologiya " 2009 [90-96 bet]
3. Abduazizov A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. G'ulomov I. "Leksikologiya asoslari". – Toshkent: Fan, 2020.
5. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining leksikologiyasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
6. Karimov U. "Tilshunoslik nazariyasi". – Toshkent: Sharq, 2021.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
8. Hoshimov O' "Ikki eshik orasi". – Toshkent: Sharq, 2018.